O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI BALIQCHI TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 27 - dekabr 240-1-18-Q/22 Baliqchi tumani hokimligi

Shaharsozlik xujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevral “2018-2022-yillarda aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta’minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3502-sonli qarori hamda Qurilish Vazirining 2022-yilda ishlab chiqilishi rejalashtirilgan shaharsozlik hujjatlari to‘g‘risidagi “Manzilliy ro‘yxat”i bilan tasdiqlangan dasturi asosida, O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik Kodeksining 18 va 21-moddalariga, shuningdek, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashlari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2018-yil 31-iyuldagi 603-son qaroriga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati tog`risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Andijon viloyat Qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashi muhokamasiga kiritilgan, Andijon viloyati Baliqchi tumani **“Xo`jaobod shaxarchasi”**ning shaharsozlik hujjatlari jamoatchilik nazorati sub'ektlari vakillari hamda hududiy davlat tashkilotlari rahbarlari va mas'ul xodimlar ishtirokida ma'qullanganligi inobatga olinsin.

2. Andijon viloyati Baliqchi tumanining **“Xo`jaobod shaxarchasi”**ning bosh reja loyihalari ishlab chiqilishi bilan bir vaqtda batafsil rejalashtirish loyihalari hamda unga yondosh mahallalarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalariga muvofiq asosiy holatlari va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan birgalikda tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o`rinbosari M.Mamatov, tuman qurilish bo`limi

(S.Oxunov)lar o‘z vakolatlari doirasida:

tegishli mutasaddi tashkilot va idoralarni jalb etgan holda bosh reja loyihalari ishlab chiqilishi bilan bir vaqtda batafsil rejalashtirish loyihalari hamda yondosh mahallalarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalariga muvofiq, mahalla fuqarolar yig‘inlari hududlarini shaharsozlik jihatidan va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib, tasdiqlash;

Xo`jaobod shaxarchasi hududi yerlaridan maqsadsiz foydalanishga va noqonuniy qurilishlarni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan qat'iy nazorat o‘rnatish yo‘li bilan ulardan samarali foydalanish;

energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali muhandislik-kommunikatsiya tuzilmasini (suv, elektr, gaz, issiqlik ta'minoti, telekommunikasiya obektlari, kanalizasiya, irrigasiya) qurish va rekonstruksiya qilish yo‘li bilan modernizasiya qilish;

ko‘p qavatli uy-joylar, ta'lim, sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat, san'at va dam olish obektlarini oqilona joylashtirish hamda bosh rejaga muvofiq, infratuzilmani rivojlantirish tavsiya etilsin.

4. Tuman qurilish bo`limi (S.Oxunov) aholi punktlarining tasdiqlangan shaharsozlik xujjatlariga asosan, qurilish obektlarini joylashtirilishiga qat'iy amal qilinishini nazoratga olsin.

5. «O‘zGASHKLITI» DUK bosh loyiha qidiruv instituti, tasdiqlangan shaharsozlik xujjatlarini amalga oshirilishida qonunchilikda belgilangan tartibda mualliflik nazoratini o‘rnatsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o’z zimmamda qoldiraman.

Baliqchi tuman hokimi **J.Abdurayimov**